

Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti S.Mirzayev boshchiligidagi delegatsiya Yaponiyada

Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti S.Mirzayev boshchiligidagi olimlar va muttaxislardan iborat delegatsiya seysmologiya va seysmik xavfsizlik sohasidagi, xususan, davlat boshqaruvi va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ularning ijrosini ta'minlash yo'nalishidagi tajribani o'rganish, aholi va hududlarning seysmik xavfsizlikni ta'minlash borasida ishlarni amalga oshirishda ilg'or ilmiy va amaliy tajribani o'rganish maqsadida Yaponiyada bo'lib turibdilar.

Delegatsiya safar davomida Nagoya, Lokogama, Tokio va Sukuba universitetlari va Qurilish tadqiqotlari instituti, Yaponiya Vazirlar Mahkamasi tarkibidagi markazga tashrif buyurdilar.





Tashrif davomida olimlarimiz seysmologiya va inshootlar seysmik xafvsizligi borasida yaponiyalik yetakchi olimlar va mutaxassislar bilan fikr almashinishmoqda va kelajakda birgalikda amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalarni muhokama qilishmoqda.